

YURIDIK SHAXSLARNING FILIAL VA VAKOLATXONALARINING YURIDIK AHAMIYATI

Yoqubjonova Rayxona Muzaffar qizi

Ergasheva Sabina Abdisami qizi

*Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va
Qiyosiy huquqshunoslik fakulteti 2-bosqich talabalari*

Annotatsiya: *Maqolada yuridik shaxs, uning filial va vakolatxonalari tushunchasi, maqomi, ularning javobgarlik masalalari, huquqiy tartibga solishda yuz beradigan ziddiyatlar, uni tartibga soluvchi qonunchilik va ularning o'ziga xos tomonlari MDH hamda Yevropa davlatlari huquq tizimi bilan solishtirma, unga oid nazariy fikrlar o'z aksini topgan.*

Kalit So'zlar: *yuridik shaxs, filial, vakolatxona, javobgarlik, litsenziya, ro'yxatdan o'tkazish, investitsion jozibadorlik.*

KIRISH

Tashqi bozorda o'z ishtirokini qidirayotgan ko'plab tashkilotlar uchun birinchi qadam vakolatxonani tashkil etishdir. Filial ochish to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni kiritish strategiyasidir. U ko'pincha bozorga kirish strategiyasining birinchi qadami sifatida, o'z o'rnini egallash, tashkilotning mavjudligini ma'lum qilish va maqsadli bozor haqida qimmatli ma'lumotlarni olish uchun ishlatiladi. Vakolatxona bozor dinamikasi, mijozlarning afzalliklari va mahsulotning yaroqliligi haqida aniq ma'lumot olishning yaxshi usuli hisoblanadi. Shuningdek, u tartibga solish va boshqa turdagi to'siqlarni olib tashlash uchun tashkilot nomidan harakat qilishi mumkin. Deyarli har qanday biznes turi bozorga kirishning dastlabki mexanizmi sifatida vakolatxonadan foydalanishi mumkin. Kichik xizmat ko'rsatish turidagi biznes hech qachon vakolatxona doirasidan tashqariga chiqa olmaydi, kapitalni ko'p talab qiladigan biznes esa ko'p bosqichli strategiyaning poydevori sifatida vakolatxonadan foydalanishi mumkin. Bu esa O'zbekiston Respublikasini ham chetlab o'tmagan.

Hozirgi kunda O'zbekiston hududida 2024-2025-yilgacha o'z faoliyatini ro'yxatdan o'tqazgan 8ta chet el banklarining vakolatxonalari mavjud. Ular CommerzBank AG, KoreaEximBank, GazpromBank, KyongnamBank, J.P. Morgan Chasebank, Orienbank, Shinhanbank, Landensbank Baden-Wurttemberg.

Bundan tashqari RUDMASH EXPORT, ARDENA TRANSPORT, TAKEDA, ABBOTT LABORATORIES, ABPLANALP ENGINEERING kabi yirik kompaniyalar ham O'zbekiston Respublikasi hududida o'z vakolatxona va filiallariga ega.

Yuridik shaxs- fuqarolik huquqi va majburiyatlarining konkret subyekti hisoblanuvchi korxonalar, muassasa, tashkilot va shaxslar. O'zbekiston Respublikasi

fuqarolik qonunchiligiga ko'ra yuridik shaxs o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvda alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk asosida javob beradigan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy-nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarini bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilotdir. Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak. Yuridik shaxslar o'z vazifalarini amalga oshirish va aholiga yaqindan xizmat ko'rsatish maqsadida o'z filial, xususan, bo'limlari, idoralari, agentliklarini tashkil etishlari mumkin.

Filial nima? Bu savolga Uill Kenton, iqtisodiyot va investitsiya qonunlari va qoidalari bo'yicha mutaxassis o'z maqolasida shunday javob beradi: "Filial - bu asosiy ofisdan tashqari biznes yuritiladigan joy. Aksariyat filiallar kompaniyaning inson resurslari, marketing va buxgalteriya hisobi kabi turli jihatlarining kichikroq bo'linmalaridan iborat. Filialda odatda to'g'ridan-to'g'ri bosh ofisdagi boshqaruv a'zosiga hisobot beradigan va unga javob beradigan filial menejeri bo'ladi."²⁰

Vakolatxona yuridik shaxsning u turgan yerdan tashqarida joylashgan, yuridik shaxs manfaatlarini ifodalaydigan va ularni himoya qiladigan alohida bo'linmasidir. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida esa quyidagicha ta'rif berilgan: "Filial yuridik shaxsning u turgan erdan tashqarida joylashgan hamda uning barcha vazifalarini yoki vazifalarining bir qismini, shu jumladan vakolatxona vazifalarini ham bajara oladigan alohida bo'linmasidir."²¹ Vakolatxona va filiallarning rahbarlari yuridik shaxs tomonidan tayinlanadi hamda uning ishonchnomasi asosida ish olib boradi.

Filialni o'rnatish uchun universal model yo'q, lekin ularning ko'pchiligi geografik ehtiyojga qarab joylashgan. Ko'pgina mijozlar tezda qo'ng'iroq qilishlari mumkin bo'lgan mahalliy vakilni afzal ko'rishlari mumkin va aholi ko'proq shahar markazlarida bir-biriga yaqin joylashgan ko'plab filiallarni ko'rish odatiy hol emas. Bu zanjirli restoranlar, banklar va chakana sotuvchilar kabi xizmatlarga asoslangan korxonalarni ko'rib chiqishda eng keng tarqalgan. Aholisi kamroq bo'lgan qishloq joylarda filiallar bir-biridan uzoqroqda joylashgan bo'lishi mumkin

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimida yuridik shaxslarning filial va vakolatxonalari faoliyatini tartibga solish va ularning javobgarlik masalalari bilan bog'liq qonunchilik hujjatlari ishlab chiqilgan. Chunonchi, Fuqarolik kodeksi, Soliq kodeksi, Yuridik shaxslar faoliyatini vakolatxona, filial yoki doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan chet el yuridik shaxslari va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning markaziy ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibi to'g'risida, Yuridik shaxsning alohida bo'linmalari bo'yicha soliqlarni to'lash tartibi to'g'risida, Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib

²⁰ <https://academic-accelerator.com/encyclopedia/representative-office>

²¹ <https://lex.uz/docs/-4980337>

tamoyillari to'g'risida, Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida va hokazo.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-sentabrdagi 539-son qaroriga ko'ra Yuridik shaxslar, faoliyatini vakolatxona, filial yoki doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan chet el yuridik shaxslari va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning markaziy ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish sxemasiga ko'ra ular asosan to'qqiz bosqichdan iborat va tashkiliy va texnik tadbirlar kabi qismlarga bo'linadi.

Nizomga ko'ra, O'zbekistonda filial tashkil etilganda, mamlakat soliq organida, Davlat soliq qo'mitasida ro'yxatdan o'tish talab etiladi. Bundan farqli o'laroq, vakolatxonalar soliq organlarida ro'yxatdan o'tishlari shart emas, lekin ular hech qanday foyda keltiradigan faoliyat bilan shug'ullana olmaydilar. Ammo bunga qaramay filial yoki vakolatxonalarning ham yuridik shaxs faoliyatida tutgan ahamiyati kam emas.

Maqola davomida yuqorida keltirib o'tilgan vaziyatlarni MDH a'zo davlatlarining qonunchilik tizimiga qiyoslash maqsadga muvofiq. Avvalo, Rossiya Federatsiyasini olaylik, Federatsiyaning amaldagi fuqarolik qonunchiligi filialga vakolatxona maqomi bilan solishtirganda kengroq huquqiy maqom beradi. Masalan, filiallarning huquqlari ro'yxati asosiy tashkilot tomonidan qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan turli huquqiy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini o'z ichiga oladi. Vakolatxonaning huquqiy maqomi faqat ma'lum bir hududiy hududda tashkilot manfaatlarini ifodalashni o'z ichiga oladi. Ammo shunga qaramay, ularning hech biri yuridik shaxs maqomiga ega emas. Filiallar o'zlarining yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmaganligi sababli, ularga asosiy tashkilot huquqlar beradi. Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksining 55-moddasiga²² ko'ra filial huquqlari ro'yxati juda ko'p vakolatlarni o'z ichiga olishi mumkin, masalan:

- pudratchilar bilan shartnomalar tuzish va shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek hujjatlar mazmuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;
- ishga yangi shaxslarni jalb qilish, barcha zarur hujjatlarni rasmiylashtirish;
- yangi hamkorlarni izlash.

"Filialning huquqlari" tushunchasi boshqa ko'plab vakolatlarni o'z ichiga olishi mumkin. Asosiy jihati shundaki, yuridik shaxsning ustavida har bir filialning huquqlari ro'yxati, shuningdek, boshqa zarur ma'lumotlar, masalan, joylashgan joyi, mol-mulk ro'yxati, bo'linmaning huquqiy holati, lavozimi, tuzish tartibi bo'lishi kerak. Filial uchun asosiy funktsiyalar ro'yxati ham yuridik shaxs tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Vakolatlar to'plami asosiy tashkilotning vakolatlari bilan bir xil bo'lishi yoki undan sezilarli darajada farq qilishi ham mumkin. Istalgan vaqtda yuridik shaxs

²² <http://www.constitution.ru/>

rahbariyati tashkilot ustaviga filiallarning vakolatlarini cheklovchi yoki aksincha, ularga qo'shimcha huquqlar beruvchi o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

Qozog'iston qonunchiligi tizimiga keladigan bo'lsak, Qozog'iston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 43-moddasiga²³ muvofiq (umumiy qism): filial - yuridik shaxsning joylashgan joyidan tashqarida joylashgan va uning barcha funksiyalarini yoki bir qismini, shu jumladan vakillik funksiyalarini bajaradigan alohida bo'linmasidir. Vakolatxonalar esa faqat bosh kompaniyani ifodalaydi va uning manfaatlarini himoya qiladi. Ular boshqa sanoat yoki tijorat faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega emaslar. Vakolatxona faoliyatini texnik, moliyaviy va ma'muriy ta'minlash bosh kompaniya tomonidan ajratilgan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, vakolatxona faoliyati xarajatlarga asoslangan (uzoq muddatli istiqbolda vakolatxona faoliyati bilan bog'liq xarajatlar undan olinadigan foyda bilan qoplanadi, chunki maqsadlarga erishish investitsiyalarni oqlaydi). Shunday qilib, filial va vakolatxona o'rtasidagi asosiy farq ular bajaradigan funksiyalarning tabiati va ko'lamidadir. Filial ko'proq universal tizimli birlikdir. Holbuki, vakolatxona faoliyati ancha qisqartirilgan va cheklangandir. Filial/vakolatxonani ro'yxatdan o'tkazish tartibi ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarning Qozog'iston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiqligini ro'yxatga oluvchi tomonidan tekshirishni o'z ichiga oladi. Hujjatlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etishdan oldin norezident kompaniya Qozog'iston Respublikasidagi filial/vakolatxonaning to'g'ri ishlashi uchun turli tashkiliy tadbirlarni amalga oshirishi kerak. Jumladan, masalan, filial/vakolatxona rahbarini tayinlash, filial/vakolatxonani joylashtirish uchun ofis topish va filial to'g'risidagi nizomni ham qozoq, ham rus tillarida ishlab chiqish va tasdiqlash zarur bo'ladi.

Filial/vakolatxona Qozog'iston Respublikasi qonunlariga muvofiq soliq to'lovchi hisoblanadi; biroq, bunday filial/vakolatxonaning soliqqa tortish tartibini aniqlash uchun Qozog'iston Respublikasi va norezident kompaniya joylashgan davlat o'rtasida tuzilgan xalqaro soliq shartnomalarining shartlari va talablarini hisobga olish zarur. Qozog'iston Respublikasining "Valyutani tartibga solish va valyuta nazorati to'g'risida"gi o'zgartirishlar kiritilgan qonuniga muvofiq, 2019-yil 1-iyuldan boshlab xorijiy nomoliyaviy tashkilotlarning filiallari/vakolatxonalari barcha nazarda tutgan jihatlari bilan birga Qozog'iston Respublikasining rezidentlari deb tan olina boshlandi.

Tojikiston davlati borasida mazkur vaziyatni yoritadigan bo'lsak, "Yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida"gi Tojikiston Respublikasi qonunida Respublika hududida tashkil etilgan, qayta tashkil etilgan yoki tugatilgan yuridik shaxs faoliyati, tashkiliy-huquqiy shakli va ro'yxatidan mustaqil muassislar (ishtirokchilar) ushbu Qonunda ²⁴belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar. Qonunda yuridik

²³ <https://actforequal.org/library/qozogiston/huquqiy-hujjatlar/qonun/qozogiston-respublikasi-konstitutsiyasi/?lang=uz>

²⁴ https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/tjk_e/wtacctjk13a1_leg_8.pdf

shaxsning turidan qat'iy nazar uning filiallari va vakolatxonalari mol-mulki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobga olinadi va alohida yuridik shaxs sifatida ko'rilmaydi, deya ta'kidlangan. Bu shuni anglatadiki, Tojikiston respublikasida yuridik shaxsning filial va vakolatxonalarini xo'jalik faoliyati subyekti maqomga ega bo'lmagan holda rasmiy tan olinadi.

Yuqorida tilga olingan davlatlar filial va vakolatxonalariga ta'rifi ifodasi turlicha bo'lib, farq qilsa-da, bir xil mazmunga ega.

Yuridik shaxslarning filial va vakolatxonalarini tashkil etish bosqichlarini davlatlar miqyosida yoritib o'tadigan bo'lsak, ushbu masala bo'yicha quyidagi vaziyatlarga to'xtalib o'tamiz:

- filial va vakolatxonalarini ro'yxatdan o'tkazish
- ro'yxatdan o'tkazishning rad etilishi sabablari
- filial va vakolatxonalar uchun litsenziya talablari.

O'zbekiston Respublikasi hududida filial ochishda ariza beruvchi taqdim etadigan hujjatlar:

-ta'sischilarning bayonnomasi yoki yagona ta'sischining filial ochish to'g'risidagi qarori.

-filialning tasdiqlangan lavozimi.

-filial rahbari uchun ishonchnoma.

-filial ochish to'g'risidagi o'zgartirishlar bilan nizom.

-filialning faoliyati uchun zarur bo'lgan mulkni ko'rsatuvchi topshirish dalolatnomasi.

Qiyos o'rnida, Tojikiston Respublikasida yuridik shaxsning filial va vakolatxonalarini xo'jalik faoliyati subyekti maqomga ega bo'lmagan holda rasmiy tan olinadi va quyidagi hujjatlar taqdim etilishi talab qilinadi:

- yuridik shaxsning o'z vakolatxonalari va filiallarini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi arizasi ;

- yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarining davlat notarius tomonidan tasdiqlangan nusxalari

- yuridik shaxsning vakolatli organining qarori:

a) rasmiy vakolatxona yoki filialni tashkil etish;

b) nizomni tasdiqlash;

v) vakolatxona yoki filial rahbarini tayinlash;

- yuridik shaxsning vakolatxonasi yoki filialining ustavi;

- vakolatxona va filial direktoriga berilgan ishonchnoma

- filial va vakolatxonaning joylashgan joyini tasdiqlovchi hujjat

- qonun hujjatlariga muvofiq davlat boji to'langanligi to'g'risidagi kvitansiya yoki to'lov topshirig'i kabilardan iborat.

Rossiya Federatsiyasida rus va chet el fuqarolariga yuridik shaxs va uning filiallari(va vakolatxonalari)ni ro'yxatdan o'tkazish uchun talablar deyarli bir xil:

- tuzilmani ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza;
- yuridik manzilni tasdiqlovchi hujjatlar;
- xorijiy investor va yuridik shaxs tasischisi(lar)ning pasportidan notarial tarjima;
- kompaniya hujjatlari
 - ustav,
 - bayonnoma,
 - muassislarning notarius tomonidan tasdiqlangan arizasi ;

-apostil qo'yilgan va rus tiliga notarial tasdiqlangan tarjimasi bilan kompaniyaning hujjatlari.

Belarusiya Respublikasida esa davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun:

- yuridik shaxs ustavi ikki nusxada;
- yagona ta'sisichining qarori;
- davlat boji to'langanligi to'g'risidagi kvitansiya;
- qonun hujjatlarida belgilangan shaklda jamiyatni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi ariza;

-ustav notarial tasdiqlanmagan ikki nusxada, uning elektron nusxasi ham;

-davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi to'lov hujjatining asli yoki nusxasi;

- agar yangi tuzilmaning ta'sischisi xorijiy tashkilot bo'lsa, u ro'yxatdan o'tgan mamlakatning tijorat reestridan qonuniylashtirilgan ko'chirma yoki xorijiy davlatning mahalliy hokimiyat organidan huquqiy maqomni tasdiqlovchi boshqa shunga o'xshash hujjatni taqdim etishi shart.

-ro'yxatga olingan mamlakat qonunchiligiga muvofiq yoki ushbu hujjatlarning notarial tasdiqlangan nusxasi (ko'chirma davlat ro'yxatidan o'tish uchun ariza berishdan oldin kamida bir yil oldin berilishi kerak) belarus yoki rus tiliga tarjimasi bilan (tarjimonning imzosi notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak)

-agar yangi yuridik shaxsning ta'sischisi chet ellik jismoniy shaxs bo'lsa, shaxsini tasdiqlovchi hujjatning nusxasini taqdim etishlari (tarjimonning imzosi notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak) shart hisoblanadi.

Bundan tashqari, chet ellik ta'sisichining shaxsini va maqomini tasdiqlovchi hujjatlar talb etiladi. Xorijiy yuridik shaxs uchun ta'sischi kompaniya to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tijorat reestridan qonuniylashtirilgan ko'chirma, Belarusiya uchun yuridik shaxslarning yagona davlat reestridan rasmiy muhr bilan ko'chirmaning asl nusxasi. Jismoniy shaxs uchun bu shaxsni tasdiqlovchi hujjatning nusxasi bo'ladi. Agar topshirishda pasportning asl nusxasini taqdim etishning iloji bo'lmasa, uning nusxasi notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak. Bu kabi talab yuqorida solishtirilgan davlatlar huquq tizimida uchramaydi. Bundan ko'rishimiz mumkinki, Belarusiya Respublikasi huquq tizimida hali-hamon byurokratik tizim alomatlari ko'zga tashlanadi.

Qozog'istonning qonunchilik bazasi qoidalariga ko'ra esa:

- davlat ro'yxatidan o'tish uchun ariza;
- yuridik shaxs nizomi;
- ta'sis memorandumini;

- yuridik shaxs vakolatli organining yoki ta'sisining filial yoki vakolatxonani tashkil etish to'g'risidagi qarori;

-yuridik shaxs joylashgan joyini tasdiqlovchi hujjat;

-davlat boji to'langanligi to'g'risidagi kvitansiya.

- tuzilma faoliyatini kadrlar bilan ta'minlash;

-yillik audit ma'lumotlari;

- yuqoridagi hujjatlarning qozoq tilidagi nusxali versiyasi kabi hujjatlar jarayon uchun zarur hisoblanadi. Bunday korxonaga to'liq xorijiy korporatsiyaga tegishli bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, kompaniyaga Qozog'iston hududida savdo operatsiyalarini amalga oshirishga ruxsat berilmagan. Shunday qilib, bunday firma faqat asosiy tashkilotning bozor tadqiqotlari va reklama faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin.

Taqdim etilgan hujjatlar qonun talablariga muvofiq bo'lsa, yuqoridagi davlatlarning ro'yxatdan o'tkazuvchi organi:

- O'zbekiston Respublikalarida 1 ish kuni ichida

- Qozog'iston Respublikasida 7-13 ish kuni ichida

- Tojikiston Respublikasida 10 ish kuni ichida

- Rossiya Federatsiyasida 10-14 ish kuni ichida

- Belarusiya Respublikasida 5 ish kuni ichida kerakli barcha amallar bajarilib, tashkil etilgan tuzilma davlat ro'yxatiga kiritiladi.

Alternativ va qulay variant sifatida onlayn ro'yxatdan o'tkazish tizimi ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, yuqoridagi davlatlarning barchasida "yagona darcha" sifatida faoliyat yuritadi. Onlayn ro'yxatdan o'tkazish tizimining bir qancha qulayliklari jarayonning tezligi, tizimning xavfsizligi, darhol tasdiqlash imkoni va real vaqtdagi statistikani aniqlash mumkin ekanligida ifodalanadi. Ma'lumot o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida onlayn ro'yxatdan o'tkazish jarayoni 30-40 daqiqani tashkil etadi.

Ammo bu bilan jarayon nihoyasiga yetmaydi. Asosiy amalga oshirish kerak bo'lgan talablar endi boshlanadi. Xususan davlatlar miqyosida mazkur masalani taqiqlaydigan holatlar ham mavjud, masalan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida:

-hujjatlar noto'g'ri formatlangan bo'lsa;

-agar filial ochish uchun hujjatlar soni etarli bo'lmasa;

-hujjatlar filialning lavozimini tasdiqlash vakolatiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan tasdiqlangan bo'lsa;

-agar ochiladigan filialning tayinlangan direktori filial to'g'risidagi nizomni tasdiqlash vakolatiga ega bo'lmasa, ishonchnomada bunday qoidalar mavjud bo'lmasa;

-agar ishonchnoma noto'g'ri rasmiylashtirilgan bo'lsa yuridik shaxs yoki uning filial va vakolatxonalarini ro'yxatdan o'tkazishning rad etilishiga asos bo'la oladi.

Tojikiston Respublikasida esa:

- ob'ektlarni yaratishni huquqiy tartibga solish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilmaslik;

- taqdim etilgan hujjatlarning Tojikiston qonunchiligiga mos kelmasligi;

- Tojikiston Respublikasi hududida xuddi shunday nomdagi boshqa yuridik shaxs ro'yxatdan o'tgan bo'lsa ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza rad etiladi. Tojikiston qonunchiligiga binoan "yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazishni huquqiy tekshirish xulosasi"da ko'rsatilgan bo'ladi. Yuridik shaxsni yaratishni davlat ro'yxatidan o'tkazish asossizligi sababli rad etish taqiqlanadi.

Qozog'iston Respublikasida yuridik shaxs va uning filial va vakolatxonalarini rad etish:

-muayyan turdagi tovarlarni (xizmatlarni) markalash uchun umumiy foydalanishga kirgan bo'lsa;

-yuridik shaxs nomi tarkibida farmatsevtika mahsulotlarining xalqaro patentlanmagan nomlari bo'lsa;

-tovar belgilari yoki ularning elementlari ro'yxatga olinishi mumkin bo'lmagan belgilar guruhiga kirs;

-xizmat ko'rsatuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi shaxs to'g'risida noto'g'ri yoki chalg'itishga qodir bo'lgan ma'lumot bo'lsa;

-mahsulot ishlab chiqarilgan joyga nisbatan chalg'ituvchi geografik ob'ektlarning nomlari kiritilgan bo'lsa;

-tovarning haqiqiy ishlab chiqarilgan joyini rasman ko'rsatish, lekin tovarning boshqa hududdan kelib chiqishi haqida noto'g'ri taassurot mavjud bo'lsa to'g'ridan-to'g'ri amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, Yevropalik taniqli olimlar, xususan Hansman, Henry va Reinier Kraakman yuridik shaxslarning vakolatxona va filiallarining javobgarlik masalalari bo'yicha ko'plab tortishuvlar olib borishgan. Binobarin, Bebchuk, Lucian o'zining mashhur risolalari bilan tanilgan. Cheffins, Brian, John C, Macey, R. Jonathan kabilar mazkur maskur masalani kengroq yoritishda o'z hissasini qo'shgan. Taniqli huquqshunos olimlar tomonidan amalga oshirilgan muhokama jarayonlarida filial va vakolatxona tashkil etish borasida qaror qabul qilishda e'tiborga olinadigan asosiy omillar ham ishlab chiqilgan bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi.

● Xarajatlar. Filiallar odatda vakolatxonalardan ko'ra jismoniy joylashuvni aniqlash va tartibga solish talablariga rioya qilish nuqtai nazaridan ko'proq sarmoya talab qiladi.

● Xatarlar. Filiallar bosh kompaniyani yuridik va moliyaviy majburiyatlar kabi yuqori risklarga duchor qiladi, vakolatxonalar esa ko'proq cheklangan javobgarlikka ega.

● Boshqaruv. Filiallar operatsiyalarni to'g'ridan-to'g'ri nazorat qilish va ko'proq moslashuvchanlikni taklif qiladi, vakolatxonalar esa ko'proq bilvosita, maslahatchi rolga ega.

Xulosa o'rnida, kompaniyalar Markaziy Osiyoga kengaytirishni rejalashtirayotganda, filial yoki vakolatxona ochishning afzalliklari va kamchiliklarini diqqat bilan ko'rib chiqishlari kerak. Biznes muhitini, madaniy omillarni va tartibga

solish talablarini baholash juda muhimdir. Bundan tashqari, kompaniyalar yuridik va moliyaviy majburiyatlardan qochish uchun muvofiqlik va soliqqa tortish bo'yicha mutaxassislardan maslahat olishlari kerak. Nihoyat, madaniy xabardorlik va til ko'nikmalari Markaziy Osiyodagi mijozlar va manfaatdor tomonlar bilan uzoq muddatli munosabatlar o'rnatishda juda foydali bo'lib, kompaniyalarga mintaqada muvaffaqiyatga erishishda yordam beradi. Bu borada maqsad qo'ygan yangi yoki "mo'rt" kompaniyalar uchun navbatdagi kriterialarga e'tibor qaratish yuqori tajribaga ega dunyoviy kompaniyalar beradigan tavsiyasi bu chet elda kompaniya ko'lamini kengaytirish mo'ljal qilingan hududning mahalliy dinamikasini to'liq tushunishni talab qiladi. Filiallarni ochishda e'tiborga olish kerak bo'lgan ba'zi omillar:

- Bozor salohiyati
- Bozor hajmi va o'sish sur'ati
- Mahsulotlaringiz yoki xizmatlaringizga talab
- Bozorning to'yinganligi va raqobat
- Madaniy nuanslar
- Til va aloqa
- Urf-odatlar va urf-odatlar
- Ishbilarmonlik odob-axloq qoidalari va normalari
- Normativ talablar
- Huquqiy asoslar va tartiblar
- Soliq va imtiyozlar
- Mulkchilik va intellektual mulk huquqlari.

Jismoniy ishtirok etish orqali bozorga sodiqlikni bildirish va uzoq muddatga sarmoya kiritishga tayyorlikni ko'rsatish. Bu mijozlar, hamkorlar va nazorat qiluvchi organlar bilan ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Filiallarni ochish to'liq sho''ba korxonani tashkil qilishdan ko'ra tezroq, arzonroq va kamroq xavfli bo'lishi mumkin. Siz mavjud infratuzilma, resurslar va mahalliy hamkorliklardan foydalanishingiz mumkin.

Bundan tashqari filiallarni ochish ko'p foyda keltirishi bilan birga, ba'zi xavf va qiyinchiliklarni ham o'z ichiga oladi:

- resurslarni taqsimlash-yangi bozorlarga chiqish vaqt, pul va xodimlarga katta investitsiyalar talab qiladi. Ushbu sayohatga chiqishdan oldin xarajatlar va foydalarni diqqat bilan baholash muhimdir.

- madaniy to'siqlar-turli madaniyatdagi odamlar bilan ishlash qiyin bo'lishi mumkin. Madaniy tafovutlar faol ravishda hal etilmasa, tushunmovchiliklar, nizolar va stereotiplar paydo bo'lishi mumkin.

- bozor o'zgaruvchanligi-alqaro bozorlar tebranishlar va geosiyosiy risklarga duchor bo'ladi. Bu sizning biznes operatsiyalaringiz, daromadlar va rentabellikka ta'sir qilishi mumkin.

- muvofiqlik va huquqiy xavflar-filiallar yoki vakolatxonalar ochish yangi bozorlarga chiqish va raqobatdosh ustunlikka erishishning ajoyib usuli bo'lishi

mumkin. Biroq, tadqiqot o'tkazish, xavf va imkoniyatlarni baholash va mustahkam strategiyani ishlab chiqish muhimdir.

Mamlakatimiz joylashgan mintaqadan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, Markaziy Osiyo o'sish va diversifikatsiya qilishni maqsad qilgan kompaniyalar uchun istiqbolli mintaqadir. Bu yerda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistondagi muvaffaqiyatli filiallarning ayrim misollari keltirilgan.

Microsoft Qozog'iston. 1994-yilda ochilgan va shu vaqtdan boshlab IT sohasida yetakchiga aylandi. Filialda 100 dan ortiq mutaxassislar ishlaydi va dasturiy ta'minotni ishlab chiqishdan tortib konsaltinggacha bo'lgan turli xizmatlarni taklif etadi.

Intercontinental mehmonxonalar Qirg'iziston. Filial 2007 yilda tashkil etilgan va poytaxt Bishkek shahrida ikkita mehmonxonani boshqaradi. Mehmonxonalar jahon darajasidagi qulayliklarni taklif etadi va mahalliy va xalqaro mijozlarga xizmat qiladi.

Unilever Tojikiston. Filial 1998-yilda tashkil etilgan va shundan so'ng o'z portfelini Dove, Lipton va Knorr kabi taniqli brendlarni o'z ichiga olgan holda kengaytirdi. Unilever Tojikiston barqaror o'sish va ijtimoiy mas'uliyatga sodiqligi uchun ko'plab mukofotlarga sazovor bo'ldi.

Dragon Oil Turkmaniston. Filial 2000-yilda Kaspiy dengizidagi neft va gaz zaxiralarini qidirish va rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan. O'shandan beri kompaniya muhim kashfiyotlar qildi va mahalliy infratuzilma va jamoat loyihalariga sarmoya kiritdi.

Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O'zbekistonda ham iqtisodiy o'sish sur'atlari xorijiy tadbirkorlarning qiziqishini uyg'otmoqda. Biroq, bu mamlakatlardagi biznes muhiti murakkab qoidalar, byurokratik jarayonlar va til to'siqlari bilan qiyin bo'lishi mumkin. Kompaniyalar uchun ushbu bozorlarni kengaytirishda mavjud bo'lgan turli xil variantlarni, jumladan, filiallar yoki vakolatxonalarni tashkil etishni baholash juda muhimdir.

Bu borada hozirda O'zbekiston Respublikasida qulay investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini shakllantirish orqali strategik masalalarni yuzaga chiqarish va hal etish bilan shug'ullanuvchi Strategik rivojlanish agentligi tashkil etilgan. Agentlikning bosh direktori o'rinbosari Aleksey Sim O'zining "Iqtisodiy sharh" jurnaliga bergan intervyusida: "O'zbekistonga kirib kelayotgan chet el kompaniyalari va qiziqish bildirayotgan investorlar uchun qulaylik sifatida valyuta kurslarining bir nechta barmog'ini bartaraf etilib, valyuta mablag'larini banklar orqali to'siqsiz konvertatsiya qilish imkoniyatlari yaratildi. Iqtisodiyotning davlat sektorlari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tuzilmasi, energetika sektori, tog'-kon sanoati va aviatsiya tarmoqlari optimallashtirildi. Davlat aktivlarini boshqarish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha alohida agentliklar, monopmahalliy va xorijiy investorlarning faoliyati kafolatlari va huquqini himoya qilishning mavjud huquqiy vositalari bilan bir qatorda, davlat tomonidan tadbirkorlarning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning yangi mexanizmlarini joriy etish davom ettirilmoqda. Bundan tashqari, monopolistik

iqtisodiyotga va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Biznes-ombudsman institutlari hamda Bosh vazirning Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish qabulxonalari tashkil etildi.²⁵ deya ta'kidladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi
3. "Yuridik shaxslar, faoliyatini vakolatxona, filial yoki doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan chet el yuridik shaxslari va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning markaziy ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibi to'g'risida"gi qonun
4. "Yuridik shaxsning alohida bo'linmalari bo'yicha soliqlarni to'lash tartibi to'g'risida"gi qonun
5. "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib tamoyillari to'g'risida"gi qonun
6. "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi qonun
7. https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/tjk_e/wtacctjk13a1_leg_8.pdf
8. <https://actforequal.org/library/qozogiston/huquqiy-hujjatlar/qonun/qozogiston-respublikasi-konstitutsiyasi/?lang=uz>
9. <https://lex.uz/docs/-4980337>
10. <https://academic-accelerator.com/encyclopedia/representative-office>
11. <https://www.tradeready.ca/2019/topics/market-entry-strategies/representative-branch-office-option-expand-new-markets/>
12. <https://azizovpartners.kz/en/2021/11/15/branches-and-representative-offices-difference-and-features-2/>
13. <https://legalact.uz/en/services/establishment-of-branches-on-the-territory-of-the-republic-of-uzbekistan>
14. https://track.unodc.org/uploads/documents/BRI-legal-resources/Kazakhstan/8-_Law_on_State_Registration_of_Legal_Entities_and_Record_Registration_of_Branches_and_Representatives_EN.pdf

²⁵ <https://asr.gov.uz/news/3536>